



QISHLOQ XO'JALIGI MAXSULOTLARINI STATISTIK MONITORING QILUVCHI DASTURIY TA'MINOT

Xaydarova Durdona

Guluston Davlat Universiteti o'qituvchisi

Toyirov Shaxzod

Guluston Davlat Universiteti talabasi

Jumayev Shaxzod

Guluston Davlat Universiteti talabasi

Omonov Shoxruh

Guluston Davlat Universiteti talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali tanishtiriladigan qishloq xo'jaligi maxsulotlarini statistik monitoring qilish dasturi qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirilishidan tortib uning statistikasini tuzish, davlatga topshirilishi yoki eksportga chiqarilishini onlayn tarzda kuzatib borish imkoniyatini beradi. Ushbu dastur orqali har bir maxsulot qabul qiluvchi maskanlarda yetkazilgan maxsulotlar onlayn tarzda dasturiy tizim statistikasiga kiritib boriladi. Tizimga kiritilgan ma'lumotlarni viloyatlar, tumanlar, qabul maskanlari va fermerlar kesimida shartnomaviy rejasi, yetkazib berilgan maxsulot hajmi va qoldiq bo'yicha statistik analiz qilib borish mumkin bo'ladi. Bu orqali, fermerlarimiz o'zlari yetkazgan yoki eksport qilgan maxsuloti haqidagi ma'lumotlarni yil bo'yi kuzatib borishlari ham mumkin.*

***Kalit so'zlar:** Dasturiy ta'minot, PHP dasturlash tili, ma'lumotlar bazasi, onlayn ma'lumot, administrator, Apache kleint .*

Kirish

So'ngi yillarda mamlakatimizda kompleks reja va dasturlar asosida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida qishloq hududlari infratuzilmasi yanada rivojlanib bormoqda. Jumladan, namunaviy loyihalar asosidagi uy-joylar, ichimlik suvi, elektr energiyasi, tabiiy gaz tarmoqlari, avtomobil yo'llari qurilishi hamda kommunikatsiya xizmatlarini rivojlantirish, investitsiyalarni keng jalb qilish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Shu asnoda, mustaqilligimizning ilk yillaridayoq qishloq ho'jaligini tubdan isloh qilish va modernizatsiyalashga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratila boshlandi. Agrar soha va qishloq xo'jaligini jahon talablariga mos tarzda rivojlantirish uchun erlar o'zlarini haqiqiy egalari bo'lmish fermerlarga bo'lib berildi.

Tahlil va natija

Qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtirishda avvalombor zamonaviy va yuqori texnologiyalarni o'rni beqiyosligini anglab yetgan holda fermerlarimiz zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishmoqda. Shu bois, fermerlarimiz yetishtiradigan maxsulot turlari va sifati yildan yilga oshib bormoqda. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtiruvchi fermerlarimiz yil boshida davlatimiz bilan yillik

shartnoma rejalarini belgilab olishadi. Xozirgi kunda fermerlarimiz yetishtirgan qishloq xo'jaligi maxsulotlari dunyoning ko'plab mamlakatlariga ham eksport qilinmoqda. Bunday jarayonda, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirilishi, fermerlarning shartnomaviy rejalarini bajarishini va eksportga chiqarilayotgan maxsulot haqidagi ma'lumotlarni statistik tahlil qilish va monitoringini yuritish juda katta axamiyat kasb etadi. Bu orqali, barcha turdagi qishloq xo'jaligi maxsulotlarini har bir fermer, tumanlar, viloyatlar va respublika kesimida statistik monitoring qilish va yillik maxsulot yetishtirilishi va sotilishini kuzatib borish imkoniyati yaratiladi. Bugun dunyoning 80 ta davlatiga 180 turdan ortiq har xil meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilish yo'lga qo'yildi. Mamlakatimiz o'rik, olxo'ri, uzum, yong'oq, karam va boshqa ko'plab meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmi bo'yicha dunyoda o'nta etakchi davlat qatoriga kiradi. Qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtirilishi va sotilishini statistik monitoring qilish dasturi ishni samarali tashkil qilish, tezkorlik bilan ma'lumot almashish orqali ish tezligini oshirish va hisob — kitoblarda aniqlikni ta'minlashga yordam beradi. Ushbu dasturiy ta'minot orqali fermer xo'jaliklarining maxsulot yetishtirish, maxsulot statistikasini tuzish va sotish jarayonini to'g'ridan-to'g'ri internet orqali monitoring qilish imkoniyati yaratildi.

— Kuzatuvchi. Kuzatuvchi huquqiga ega bo'lgan foydalanuvchilar bulan, hududiy boshqaruv organlari yoki tegishli tashkilotlar hodimlari bo'lishi mumkin. Bu huquqga ega bo'lgan foydalanuvchilar barcha viloyat, tumanlar, qabul maskanlari va fermerlar kesimida qishloq xo'jaligi maxsulotlarini statistik tahlil qilishlari va kuzatib borishlari mumkin(rasm1)

Хоразм вилояти 2015 йил ҳосили учун давлатта бугдой сотиш бўйрида 2015 йил 18 бўлган
Маълумот

№	Туманлар	Товар дов				Урутлик дов				Жами						
		Режа, тн	Бир кунда		Мавсум бошидан		Режа, тн	Бир кунда		Мавсум бошидан		Режа, тн	Бир кунда		Мавсум бошидан	
			тонна	%	тонна	%		тонна	%	тонна	%		тонна	%	тонна	%
1	Bog'ot	21374.8	0	0	203.3	1	1	0	0	41.8	4179.7	21375.8	0	0	245.1	1.1
2	Gurlan	32285.4	0	0	546.3	1.7	1	0	0	0	0	32286.4	0	0	546.3	1.7
3	Urganch	27790.1	0	0	281.6	1	1	0	0	0	0	27791.1	0	0	281.6	1
4	Xazorasp	28280.3	0	0	295.7	1	1	0	0	105.1	10510.9	28281.3	0	0	400.8	1.4
5	Xiva	18749.9	0	0	703.6	3.8	1	0	0	192.7	19274.6	18750.9	0	0	896.3	4.8
6	Xonqa	29060	0	0	1142.2	3.9	1	0	0	0	0	29061	0	0	1142.2	3.9
7	Shovot	28200.1	0	0	0	0	1	0	0	0	0	28201.1	0	0	0	0
8	Qo'shko'pir	30450.6	0	0	0	0	1	0	0	0	0	30451.6	0	0	0	0
9	Yangiariq	15640.2	0	0	167.4	1.1	1	0	0	17.8	1780.3	15641.2	0	0	185.2	1.2
10	Yangibozor	26170	0	0	0	0	1	0	0	0	0	26171	0	0	0	0
	Jami:	258001.4	0	0	3340.2	1.3	10	0	0	357.5	3574.6	258011.4	0	0	3697.6	1.4

1-Rasm. G'alla maxsulotining tumanlar kesimidagi statistik tahlil natijalari.

Xulosa qilib aytganda qishloq xo'jaligi — aholini oziq-ovqat bilan taminlashga va bir qator sanoat tarmoqlari uchun xom-ashyo olishga yo'naltirilgan iqtisodiyotning ajralmas sohasidir. Shu bois, yaratilgan dasturiy ta'minot qishloq xo'jaligi maxsulotlarini



yetishrilishi va topshirilishi tezkor va samarali monitoring qilish orqali qishloq xo'jaligi, qolaversa, mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojiga katta hissa qo'shishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.gov.uz/uz>
2. <http://stat.uz/>
3. Lerdorf, Rasmus, Kevin Tatroe, and Peter MacIntyre. Programming Php. " O'Reilly Media, Inc», 2006.
4. Кабилова, Д. С., Шеркулова, Н. Р., & Базарбаева, Г. Г. (2020). Реализация продукции-показатель оптимального планирования производства. In Исследования молодых ученых (pp. 15-17).
5. Шеркулова, Н. Р., Давлатов, Р. М., Негматов, С. С., & Негматова, М. Н. (2021). Улучшения характеристических свойств на натуральном шелке в процессе переработки с использованием модификатора. Universum: технические науки, (10-4 (91)), 73-78.
6. Шеркулова, Н. Р., & Давлатов, Р. М. (2021). ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СПОСОБА МОДИФИКАЦИИ НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА ШЕЛКА. Universum: технические науки, (10-4 (91)), 79-85.
7. Rasulovna, K. R. (2023). Complex Nickel (Ii) Compounds Based on Acylhydrazones of Aroyltrifluoracetylmethhanes. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(10), 3-5.
8. Kochkarova, R. R., & Turgunov, E. (2023). IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING CHEMISTRY LESSONS AT SCHOOL WITH THE HELP OF DIFFERENT GAMES. American Journal of Applied Science and Technology, 3(10), 15-19.
9. Шеркулова, Н. Р., Давлатов, Р. М., & Маматкулова, М. шелковых волокон/. Монография.-Гулистон.-"Ziyo nashr-matbaa" ХК, 2022г.-148с
10. student Salomova, U. S. R. D., & Murodovna, Z. (2023). SPECIAL FEATURES OF INVESTMENT IN AGRICULTURE. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(4).
11. Shaimardanovich, D. A., & Rustamovich, U. S. (2019). ECONOMIC-MATHEMATICAL MODELING OF OPTIMAL LEVEL COSTS IN THE GREENHOUSE VEGETABLES. International Journal of Accounting Research, 4(1), 20-25.
12. Rustamovich, U. S., & Shaimardanovich, D. A. (2022). Innovative potential aci as an object management (in the example of hydroponics). EPRA International Journal of Agriculture and Rural Economic Research (ARER), 10(5), 19-24.
13. Bafoevich, U. B., Rasulovna, K. R. N., & Ziyodulloevna, K. S. (2021). REACTION OF 1, 1, 1-TRIFLUOROMETHYL-4-PHENYLBUTANEDIONE-2, 4 WITH BENZOIC ACID HYDRAZIDE. INFORMATION TECHNOLOGY IN INDUSTRY, 9(3), 939-944.